

«TASDIQLAYMAN»

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB

Axborot texnologiyalari bosh direktori



F.I.Kushnazarov

«22» yanvar 2025 y.

“Mahalla bankirlari uchun axborotlashtirish qurilmalari (planshet)ni etkazib berish”

bo'yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent 2025 y.

1. Buyurtmachi

Buyurtmachi –«Biznesni rivojlantirish banki»ATB.

«Buyurtmachi»ning manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 18-A uy;
Tel.: (998 78) 150-93-39 (ichki raqam 808)

2. Ijrochi

Ushbu tanlov bo‘yicha ijrochi tanlash natijalari asosida belgilanadi.

Ijrochi mazkur hujjatning barcha talablariga javob beradigan uskunalar yetkazib berish bo‘yicha o‘zining Texnik taklifini taqdim etishi zarur.

Ijrochi barcha komponentlar bo‘yicha kafolatli texnik va servis xizmatini ko‘rsatish muddati kamida bir yilni tashkil qilishini va uni kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatish yo‘li bilan uzaytirish imkoniyatini kafolatlaydi.

Ijrochi ajratilgan byudjet doirasida yangi, to‘liq butlangan va ishlashga qodir uskunani taqdim etishi, zarurat bo‘lganida, qo‘shimcha modullarni, qandaydir sabablarga ko‘ra buyurtmachi tomonidan hisonga olinmagan, biroq so‘ralayotgan konfiguratsiyadan foydalanish to‘liqligini ta‘minlash uchun majburiy bo‘lgan mahsulotlarni taklif qilishi kerak.

3. Texnik ta‘minotga qo‘yiladigan talablar

Mahsulotni yetkazib berish bo‘yicha barcha talablar sharti bilan yetkazib berishni ta‘minlashni o‘z ichiga oladigan yetkazib berishni ko‘zda tutadi.

Texnik taklifda taklif etilayotgan qurilma (planshet) soni, ishlab chiqaruvchisi va texnik xarakteristikalarini to‘g‘risida ma‘lumot taqdim etilishi shart.

Yetkazib beriladigan qurilma (planshet)larning texnik ko‘rsatkichlari texnik talablarda ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan past bo‘lmasligi zarur.

Yetkazib beriladigan qurilma (planshet)lar texnik xarakteristikasi va unga qo‘yiladigan talablar 1-jadvalda keltirilgan. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan qurilma (planshet)lar bir xil bo‘lishi lozim.

Agar taklif etilayotgan qurilma (planshet)larni bir yoki bir nechta texnik parametrlari texnik topshiriqnomada ko‘rsatilgan parametrlardan past bo‘lsa bu taklif rad etiladi va ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

1-Jadval.

Axborotlashtirish qurilmalari (planshet) 250 (ikki yuz ellik)dona

Avtorizatsiya xati talab etiladi

№	Parametrlar	Majburiy talablar
1.	Uskuna turi	Planshet
2.	Ishlab chiqaruvchi	Axborotlashtirish qurilmalari (planshet) global bozorining ishlab chiqaruvchisi
3.	Дисплей	Kamida 12.1-dyuym IPS LCD 2560x1600, FPS – 120 GHz
4.	Protssessor	Kamida Qualcomm Snapdragon 7s Gen 2 (4x2.40 GHz Cortex-A78 & 4x1.95 GHz Cortex-A55)
5.	Grafika	Kamida GPU Adreno 710
6.	SIM	Nano-SIM + Nano-SIM
7.	Operativ xotira	8G kamida
8.	O‘rnatilgan xotira	Kamida 256 GB, microSDXC ni qo‘llab-quvvatlash
9.	Batareya	Kamida 10000 mAch
10.	Ulanish	5G, Wi-Fi 802.11 a/b/g/n/a/6, dual-band, Wi-Fi Direct, Bluetooth 5.2, USB Type-C 2.0
11.	GPS	GPS, GALILEO, GLONASS, BDS, QZSS
12.	Operatsion tizim	Kamida Android 14
13.	Audio	HDR Dolby Vision / 3.5 mm audio Jack
14.	O‘lcham	Kamida 280 x 181,9 x 7,5 mm

Tanlashda bo'lg'usi ishtirokchilar doirasi kengayganida Buyurtmachi tomonidan texnik xarakteristikalarini texnik topshiriqda keltirilgan texnik ko'rsatkichlarga muvofiq keladigan yoki undan oshadigan o'xshash yechimlar asosidagi takliflar ko'rib chiqilishi mumkin biroq bunda ishtirokchilarning narx takliflari boshlang'ich narxdan oshmasligi shart, boshlang'ich narxdan yuqori narx taklif etgan ishtirokchilarning takliflari rad qilinadi va tanlovdan chetlashtiriladi.

4. Kafolatlar hajmiga va/yoki ularni taqdim etish muddatiga qo'yiladigan talablar

Taklif etiladigan qurilma (planshet) tizim dasturiy ta'minoti yangi (foydalanuvda bo'lmagan), 2024-yildan avval ishlab chiqarilmagan va jahon standartlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Kafolat muddati kamida 1 yildan kam bo'lmasligi shart.

Qurilma (planshet)larning kafolatli servis xizmati servis-markazining mutaxassislari tomonidan amalga oshirilishi lozim, va servis markazi O'zbekiston respublikasida joylashgan bo'lishi shart.

Ishlab chiqaruvchi zavod bilan hamkorligi;

(Ishtirokchi o'rnatiladigan qurilmalarni ishlab chiqaruvchi zavod bilan hamkorligi mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma taqdim etishi kerak.

5. Yetkazib berish joyi va shartlariga qo'yiladigan talablar

Ijrochi mahsulotni quyidagi joyga yetkazib berilishini ta'minlashi zarur:

Yetkazib beruvchi tovarni Toshkent shahri Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi 18 A-uy manziliga buyurtmachi talabiga binoan etkazib berishi zarur.

Yetkaziladigan tovarning hammasi O'zR hududiga rasmiy yo'l bilan olib kirilishi, qonunchilikka yoki ekvivalent xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlanishi kerak, bu tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi zarur.

Tovarlarni yetkazib berish va yuklash-tushirish ishlari yetkazib berish joyigacha avtomobil transportida yoki boshqa har qanday usulda yetkazib beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

**Axborot texnologiyalari
departamenti direktori**

Z. Ofirxo'jayev

**Davlat dasturlari ijrosi nazorati
departamenti direktori:**

M.D. Egamberdiev